

■ O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga

MUSTAQILLIK – BUYUK MAQSADLAR POYDEVORI



❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yili korxonamizda 146,7 million kubometr tog‘ jinslari qazib olindi, 90,1 million tonna ma‘dan qayta ishlandi. Qiyoslash uchun, 2016-yilda mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 62,6 million kubometr va 49,8 million tonnani tashkil etgan. Demak, o‘tgan davr mobaynida ishlab chiqarish hajmlari qariyb ikki barobarga oshdi.

So‘nggi o‘n yilda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi Markaziy kon boshqarmasining yangi bosqichga ko‘tarilishi uchun mustahkam zamin yaratdi. “Muruntov” konini o‘zlashtirishning V navbati (1-bosqichi) doirasida ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilinib, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Loyiha natijasida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari sezilarli darajada oshishi bilan birga, 1472 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, “2-gidrometallurgiya zavodini kengaytirish” loyihasi ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va texnologik jarayonlarni takomillashtirish imkonini berdi.

2 va 7-gidrometallurgiya zavodlarida joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalar sohadagi sifat o‘zgarishlarini yaqqol namoyon etmoqda. 2-gidrometallurgiya zavodida ma‘danni qayta ishlashdan tortib, “999,9” namunali oltin quymalarini tayyorlashgacha bo‘lgan jarayonlarning yagona texnologik zanjir asosida amalga oshirilayotgani ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. 2021–2024-yillarda

investitsiya loyihasi asosida yiliga 12 million tonna ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega ikkinchi navbatning, 2024–2026-yillarda esa 33, 34 va 35-tegirmon bloklari va texnologik qurilmalarini o‘rnatish, quyۇqlashtiruvchi qurilmalar hamda sorbsiya kolonkalarini barpo etish muvaffaqiyatli yakunlanib, ishga tushirildi. Natijada tegirmonlar soni 82 taga yetkazildi. Bu esa zavodning yillik ishlab chiqarish quvvatini 60 million tonnaga yetkazish imkonini berdi.

Ayni paytda qiymati 134,38 million AQSh dollari bo‘lgan “2 va 7-gidrometallurgiya zavodlarining chiqindilarini birgalikda saqlash uchun 2-GMZ chiqindi omborini kengaytirish va rekonstruksiya qilish” loyihasi bo‘yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda.

7-gidrometallurgiya zavodi texnogen chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgani bilan alohida ahamiyatga ega. Agar 2020-yilda zavodda 3,5 million tonna ma‘dan qayta ishlangan bo‘lsa, 2025 yilga kelib bu ko‘rsatkich 21,3 million tonnaga yetdi. Joriy yilda esa mazkur ko‘rsatkichni 26,3 million tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu natijalar bir haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi: zamonaviy texnologiya, professional jamoa va aniq maqsad birlashgan joyda yuksak natijalarga erishish mumkin.

2026-yil uchun tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq, Markaziy kon boshqarmasi bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish borasidagi ishlar jadal olib borilmoqda. Joriy yilning yetti oyida 313,9 million AQSh dollari miqdorida kapital qo‘yilmalar muvaffaqiyatli o‘zlashtirildi.

Bugungi kunda kelgusi taraqqiyot uchun

xizmat qiladigan yana bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. “7-GMZning qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish” investitsiya loyihasi doirasida qurilish ishlari yakunlandi. Zavod to‘liq quvvatda ishga tushirildi. “Muruntov” konini o‘zlashtirishning V navbat (2-bosqich) investitsiya loyihasi ham korxona taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo‘ladi. Loyiha to‘liq quvvatda ishga tushgach, 2-GMZga yiliga 60 million tonna ma‘dan yetkazib berish va 2633 ta yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

“2-GMZda oltin va kumushni affinaj qilish bo‘yicha yangi tayyor mahsulot sexini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Mazkur loyiha yiliga 125 tonna oltin va 205 tonna kumush ishlab chiqarish imkonini beradi.

Konchilik sohasida transport va maxsus texnika tizimi ishlab chiqarish zanjirining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bugun korxonamizda yuqori yuk ko‘tarish quvvatiga ega zamonaviy avtoag‘dargichlar, buldozerlar, avtogreyderlar, ekskavatorlar, teplovozlar va boshqa maxsus texnikalardan samarali foydalanilmoqda. 250 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega avtoag‘dargichlar hamda boshqa zamonaviy texnikalar xarid qilinib, sanoat obyektlariga foydalanish uchun topshirildi. Hozirgi kunda har oyda o‘rtacha 16 million kubometrdan ortiq tog‘ jinslari belgilangan manzillarga uzluksiz yetkazib berilmoqda.

Joriy yilda “Muruntov koni Markaziy gamma-aktivatsion tahlil laboratoriyasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish”, “Sharqiy Muruntov ohaktosh konida maydalash-saralash zavodi va karyer qurilishi”, “Muruntov konining asosiy portlovchi moddalar ombori uchun emulsiyali portlovchi moddalar ishlab chiqarish sexi, nazorat-o‘tkazish punkti va portlovchi moddalarni saqlash omborini qurish”, shuningdek, “Zarafshon–Bessopan magistral suv quvurining II liniyasini almashtirish” loyihalari amalga oshirildi. Shuningdek, yaqin kunlarda Oltinni uyumda eritmaga o‘tkazish sexida 400 o‘ringa mo‘ljallangan zamonaviy ma‘muriy-maishiy majmua foydalanishga topshiriladi.

Mustaqillikning 35 yilligi biz uchun o‘tgan davr yutuqlarini sarhisob qilish bilan birga, kelajak haqida yanada katta maqsadlarni belgilash imkonini ham bermoqda. Ahil va professional jamoamiz bilan hali ko‘plab yangi cho‘qqilarni zabt etamiz. Buning uchun bizda boy tajriba ham, ulkan salohiyat ham, eng muhimi, o‘z ishiga sadoqatli, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan mehnat qilayotgan fidoyi insonlar bor.

Otabek MUSTAKIMOV,
Markaziy kon boshqarmasi direktori.



HAR BIR KUN

kelajak sari ruhlantiradi

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Istiqbolli investitsion loyihalar doirasida joriy yilning o‘tgan davrida kovishining sig‘imi 10 kubometr bo‘lgan 4 ta elektr ekskavator, 3 ta buldozer, 50 ta vagon-dumkar va magistral yuk tashuvchi teplovoz, 3 dona avtogreyder keltirildi. “Beshbuloq” suv inshootidan 3-gidrometallurgiya zavodiga suv yetkazib berish” loyihasi yakunlandi. 3-gidrometallurgiya zavodida ma‘danni qayta ishlash hajmini oshirish doirasida SAF-5 flotatsiya tarmog‘ining yangi zanjiri qurilish-montaj ishlari yakunlandi, biooksidlash texnologiyasining asosiy ko‘rsatkichlarini barqarorlashtiruvchi uch seksiyali suv sovutish minorasi foydalanishga topshirildi. Zavodning elektr ta‘minoti barqarorligini ko‘zlab, “Feruza” podstantsiyasida katta kuchlanishli 4 dona podstantsiyalar qurish ishlari jadal sur‘atlarda olib borilmoqda. 2026-yilning o‘tgan davrida 5-gidrometallurgiya zavodida desorbsiya va tayyor mahsulot sexlaridan kelib tushadigan chiqindi suv tarkibidagi ko‘mir maydasini ajratib olish va undan qayta foydalanish maqsadida ko‘mir maydasini qayta ishlash tuguni, 4-tegirmon blogi ishga tushirildi. Zavodda texnologik jarayonlarga yuboriladigan aylanma suvlar tarkibidagi oltin zarrachalarini ajratib olib, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga zamin yaratuvchi lokal-sorbsion qurilma foydalanishga topshirildi.

Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida 2026-yilning yetti oyi mobaynida bo‘linmalarining ishlab chiqarish quvvatlarida 26 ta loyiha bo‘yicha 15 milliard 736,8 million so‘mlik 2180 dona mahsulot ishlab chiqarildi. Korxonamizda transport tizimini tubdan isloh qilib, ishlab chiqarish maydonlariga qudratli zamonaviy kon texnika vositalarini joriy etish, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini bir joyda jamlash maqsadida, “Shimoliy kon boshqarmasining yagona ishlab chiqarish axborot paneli konsepsiyasi” yaratildi. Panelda kar‘er avtotransportlari, ekskavator va burg‘ilash texnikalari bo‘yicha reja-fakt ko‘rsat-

kichlari, texnikadan foydalanish samaradorligi, tashish hajmlari va boshqa muhim ko‘rsatkichlar yagona oynada taqdim etiladi. Mazkur yondashuv turli axborot manbalaridagi ma‘lumotlarni birlashtirib, ishlab chiqarish holatini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. 3-gidrometallurgiya zavodi obyektlarida videotasvirlarni intellektual tahlil qilish bo‘yicha tajriba-sinov loyihalari amalga oshirildi. Mavjud videokuzatuv kameralarining RTSP videooqimini uzatish va aqlli tizim yordamida tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonidagi holat va hodisalarni avtomatik aniqlash, ularni qayd etish hamda tahliliiy ma‘lumotlarni shakllantirish uchun dasturiy platforma ishlab chiqildi. ICHKI yonuv dvigatellari va agregatlarning texnik holatini laboratoriya tahlillari asosida nazorat qilish yo‘nalishida ham raqamli yechimlar takomillashtirilib, 900 dan ortiq texnika birliklariga oid laboratoriya ma‘lumotlarini tahlil qilish, me‘yordan og‘ishlarni aniqlash, salbiy dinamikani kuzatish va mas‘ul xodimlarga tezkor, avtomatik ma‘lumot-xabar berish mexanizmlari shakllantirildi.

Kon boshqarmamiz yoshlari kombinat bo‘linmalari orasida epchil, zukko va bilimdon ekanliklarini ko‘rsatdilar. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi 48 ta jamoa o‘rtasida o‘tkazilgan “Zakovat” intellektual o‘yinlarining qishki mavsumida 2, bahorgi mavsumida 1-o‘rinni egalladilar. Kombinatar tarkibiy bo‘linmalari doirasida o‘tkazilgan “Eng yaxshi kitobxon”, “Ko‘ngil she‘riyati” ko‘rik tanlovlari, mustaqilligimizning o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan “NKMK oltin ovozi” qo‘shiqlar tanlovida 1 va 2-o‘ringa sazovor bo‘lganliklari shonli bayramga munosib sovg‘a bo‘ldi.

Yurtimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yillik to‘yiga munosib zafarlar bilan kirib borayotgan jamoamiz bundan keyin ham har qanday vazifa va mas‘uliyatli ishning uddasidan chiqishiga ishonaman!

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Tejamkorlik chora-tadbirlari natijasida yil boshidan buyon 211 milliard so‘mdan ortiqroq mablag‘ iqtisod qilindi. Ayni paytda “Qoraqo‘ton” konining yillik ma‘dan qazib olish hajmini 250 ming tonnadan 300 ming tonnagacha oshirish, konning foydali xizmat muddatini yanada uzaytirish maqsadida keng ko‘lamli geologik qidiruv va tadqiqot ishlari olib borilmoqda. “Ziyovuddin” kon uchastkasida joylashgan “Yangi Davon” konining sharqiy qismi hamda “Toshkon” koni tarkibiga kiruvchi 8, 71 va 75-ma‘dan tanalarini chuqur o‘rganish, “Tulayli” koni zaxiralarga dastlabki baho berish, “Shimoliy Qoraqo‘ton” koni va uning shimoliy hududidagi istiqbolli ma‘dan tanalarini dastlabki tadqiq etish bo‘yicha ishlar jadal sur‘atlarda davom ettirilmoqda.

“Arslontov” koni jamoasi o‘z faoliya-



HAMJIHATLIK SAMARASI

ti davomida muayyan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Konda yillik tog‘ jinslarini qazib olish hajmi 2016-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan ikki barobarga oshib, 6 million 734 ming kubometrga yetdi. Joriy yilda ushbu ko‘rsatkichni 8 million kubometrga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. “Pistali” konida ishlab chiqarish hajmi tobora ortib bormoqda. O‘tgan yetti oyda mazkur kondan 14,1 million kubometr tog‘ jinsi qazib olindi. So‘nggi besh yilda ilmiy izlanishlar, innovatsiyalar va ratsionalizatorlik ishlari 13 milliard 816 million so‘m mablag‘ yo‘natildi. Buning natijasida olingan iqtisodiy samara ham sezilarli darajada oshib, 20 milliard 795 million so‘mdan 47 milliard 285 million so‘mga yetdi.

Kombinat va jamoamizning fidoyi, malakali muhandislari hamda tajribali mutaxassislarining samarali mehnati tufayli yangi konlar o‘zlashtirilib, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilmoqda. Bu borada Nurota tumanida “Pistali” koni va 6-gidrometallurgiya zavodining qaymoq etilib, foydalanishga topshirilgani ayniqsa muhim ahamiyat-

ga ega. Ana shu bo‘linmalar hududlarida “Yashil belbog‘” va “Yashil makon” umummilliy loyihalari doirasida manzarali va mevali daraxtlar, buta ko‘chatlari hamda poliz ekinlarini ekish ishlari tizimli ravishda tashkil etildi. Ishchi-xodimlarning sa‘y-harakatlari bilan 175,5 gektar maydonda 77 ming 200 dona manzarali va mevali daraxt, 268 ming dona turli butadan iborat katta bog‘ yaratildi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida 149 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi barpo etildi.

Joriy yilning o‘tgan sakkiz oyi yakunlariga ko‘ra, ma‘dan qazib olish rejasi 101,2 foizga, ma‘danni qayta ishlash ko‘rsatkichi 101,6 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejasi esa 101,8 foizga bajarildi. Investitsiya dasturi doirasida 25,6 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ o‘zlashtirildi. Mahsulot tanarxini kamaytirish dasturining 101,7 foizga bajarilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga munosib hissa qo‘shildi.

Katta maqsadlar sari intilayotgan jamoaning kuch-qudrati — uning ahilli-

gi va birdamligidir. Kelgusida ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish, yangi konlarni o‘zlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdek ezgu niyatlarni “Qizilqum” kon boshqarmasi jamoasini yanada yuksak marralar sari yetaklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Qizilqum” kon boshqarmasining barcha bo‘linmalarida bayram shodiyonalari, ishchi-xodimlar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etilmoqda.

Bugun “Qizilqum” kon boshqarmasi jamoasi ulkan maqsad va yangi o‘yoqlar bilan kelajak sari dadil qadam tashlamoqda. Zero, Yangi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida barcha sohalaridagi fidokorona mehnat yurtimizning yanada obod va farovon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Avaxxon EZOXONOV,
“Qizilqum” kon boshqarmasi direktori.

YURT RAVNAQI YO‘LIDA



❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

2009-yilda “G‘ujumsoy” konida sanoat usulida oltin qazib olish boshlanishi va 2010-yilda 4-gidrometallurgiya zavodining ishga tushirilishi esa ishlab chiqarish zanjirini yanada mustahkamladi. Ma‘danni yer ostidan qazib olishdan tortib, qayta ishlash va yarim tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan jarayonlar yagona tizimga birlashdi.

Kon boshqarmasi mutaxassislari murakkab tog‘-geologik sharoitlarda yirik muhandislik loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. “Zarmitan” konining “Asosiy” stvoli chuqurligining 1000 metrga yetkazilishi shular jumlasidan sanaladi. “G‘ujumsoy” konida 500 metr chuqurlikdagi zamonaviy vertikal shaxtaning ishga tushirilishi, yer osti maydalash-saralash tizimlarining joriy etilishi ma‘dan va ishchilarni tashish samaradorligini oshirdi.

2025-yilda “Zarmitan” konida skipli stvolning foydalanishga topshirilishi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Loyiha doirasida ma‘dan tashish unumdorligi oshdi, yarajatlarni kamayib, 90 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Umumiy qiymati 40 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan “Zarmitan” konining quyi gorizontlarini o‘zlashtirish” investitsiya loyihasi esa konning istiqbolli zaxiralarini samarali o‘zlashtirishga zamin yaratmoqda.

“G‘ujumsoy” konida 1 ming 200 nafarga yaqin ishchi-xizmatchi mehnat qilmoqda. Kon ikki tik va bir qiya stvol orqali ochilgan bo‘lib, yer osti lahimlarini qazib o‘tish ishlari oltin ma‘dani qazib olish bilan parallel olib borilmoqda. 2009-yilda boshlangan yer osti lahimlarini qazib o‘tish ishlari hozirga kelib 29 700 metrga yetdi. Joriy yilda ma‘dan qazib olish hajmini 850 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Konning yillik quvvati 800 ming tonna bo‘lib, kelgusida uni yanada oshirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi konchilik raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Janubiy kon boshqarmasi konlarida zamonaviy pozitsiyalash va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari joriy etilmoqda. Yer

ostidagi ishchilar, texnika va burg‘ilash quurilmalarining joylashuvi dispetcherlik markazlarida real vaqt rejimida kuzatiladi.

Avtomatlashtirilgan aerogaz nazorati shaxtadagi havo tarkibini muntazam tekshirib, konchilar xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ish unumdorligi bilan birga mehnat xavfsizligini ham yuksaltirmoqda. Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida 400 o‘rinli yangi maishiy binoning ishga tushirilishi ham xodimlar uchun yaratilgan sharoitlarni yanada yaxshilaydi. Xodimlarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, yosh oilalarni rag‘batlantirish, madaniy tadbirlar va sayohatlar tashkil etish, mehnat muhofazasi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ishlari ham izchil davom etmoqda.

Janubiy kon boshqarmasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyot yo‘li — mamlakatimiz konchilik sanoatining yangilanishi va yuksalish tarixining bir qismi. Murakkab tog‘-geologik sharoitlarga qaramay, kon boshqarmamiz jamoasi yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirgan holda mehnat unumdorligi va xavfsizligini yuksaltirib kelmoqda. Kon boshqarmamiz tarkibidagi konlardan 2011-yili 1810,7 ming tonna ruda qazib olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich o‘tgan yili 3 077,8 ming tonnaga yetdi yoki ruda qazib olish 2011-yilga nisbatan qariyb 1,7 martaga ko‘paydi. Yer osti kon lahimlarini qazib o‘tish ishlari 2011-yil oxirigacha 16,5 kilometr bajarilgan bo‘lsa, 2025-yili qariyb 60 kilometrga yetkazildi.

Yer qardidagi boylikni el farovonligiga aylantirayotgan konchilarning mashaqqatli mehnati, muhandislarning ilmiy salohiyati va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi Janubiy kon boshqarmasini yangi marralar sari yetaklamoqda.

Toliboy YULDASHEV,
Janubiy kon boshqarmasi direktori.

■ O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga

TARAQQIYOT DRAYVERI

Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot strategiyasida milliy sanoatni izchil rivojlantirish, importga qaramlikni keskin kamaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu borada Navoiy mashinasozlik zavodi alohida o'rin tutadi.



Bugun korxona sexlarida eng zamonaviy raqamli boshqaruv dastgohlari, avtomatlashtirilgan quyuv liniyalari, payvandlash robotlari va yuqori aniqlikda ishlov berish texnologiyalari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyadan keltirilgan eng so'nggi modeldagi dastgohlar metallarga millimetrlning mingdan bir ulushigacha aniqlikda ishlov berish imkonini bermoqda.

Mexanika-yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. NKMKning 2017–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 25,1 million AQSH dollariga teng bo'lgan ikkita yirik investitsiya loyihasi hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Ularning birinchi bosqichi doirasida Janubiy Koreyaning "XONGKOK" kompaniyasidan uchta zamonaviy, raqamli dastur asosida boshqariladigan dastgoh xarid qilinib, ishga tushirildi. Bu uskunalar yirik va murak-

kab detallarga yuqori aniqlikda mexanik ishlov berish, mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirish imkonini bermoqda.

Bugun kombinatda foydalanilayotgan mexanik uskunalarning qariyb 90 foizi Navoiy mashinasozlik zavodida ishlab chiqarilmoqda. Korxonada hozirning o'zida yiliga 7–8 ta yirik sanoat tegirmonlari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lib, amalga oshirilayotgan kengaytirish loyihalari ushbu ko'rsatkichni yanada oshiradi.

Ikkinchi yirik investitsiya loyihasi quymachilik sexini rivojlantirishga qaratildi. Loyiha doirasida 25 tonnalik zamonaviy pech, pnevmotransportyor va qoliplash uskunalari o'rnatildi. Buning natijasida quyma mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yillik 35 ming tonnaga, 2030-yilga borib esa 40 ming tonnaga yetkazish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

2025-yilda zavodda 1 trillion 711 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi va o'sish

sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. 2026-yilda 1 trillion 882,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Zavod tomonidan yiliga o'tacha 15 ming turdan ziyod mahalliylashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Karyer texnikasini mahalliyashtirish ustuvor vazifalarimizdandir. Jamoamiz yaqin istiqbolda 5 kubometrlilik cho'michga ega bo'lgan mahalliy ochiq kon ekskavatorlari hamda burg'ilash uskunalarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishni maqsad qilgan.

Yangi O'zbekiston davrida zavodimiz boshqaruv tizimi ham zamon talablariga mos ravishda tubdan yangilanmoqda. Ishlab chiqarishni loyihalashtirish va nazorat qilish jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan. Har bir detalning loyihasi dastlab muhandislar tomonidan raqamli o'lchamli (3D) formatda yaratilib, so'ngra to'g'ridan-to'g'ri dastgohlar xotirasiga yo'naltiriladi. Bu inson omilini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish va tayyor mahsulotlar sifatini xalqaro standartlar, jumladan ISO talablari darajasiga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Zavodimizning galvanika uchastkasida detallarga kimyoviy ishlov berish, ularni xrom, rux va mis bilan qoplash texnologiyalari qo'llanilmoqda. Bu, detallarning zanglashga chidamliligi va xizmat qilish muddatini bir necha barobar uzaytirish imkonini bermoqda.

Ishlab chiqarishni ilm-fan bilan uzviy bog'lash maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan. Talabalar nazariy bilimlarini bevosita zavod sexlarida, real ish jarayonida mustahkamlamoqda. Biz ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahalliyashtirish darajasini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini ko'paytirish va inson kapitalini rivojlantirishni bir-biri bilan uzviy bog'liq vazifalar sifatida ko'ramiz.

Zavodimizning har bir yangi loyihasi, har bir yangi dastgohi va har bir mahalliyashtirilgan mahsuloti nafaqat korxona taraqqiyoti, balki yurtimiz sanoat salohiyati va iqtisodiy mustaqilligining mustahkamlanishi demakdir. Navoiy mashinasozlik zavodi jamoasi kelgusida ham zamonaviy mashinasozlik, mahalliyashtirish va innovatsion ishlab chiqarish sohasida yangi natijalarni qo'lga kiritib, butun O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Jahongir HAYITOV,
Navoiy mashinasozlik zavodi direktori.



Qizilqum bag'rida 60 yildan ziyod tarixga ega bo'lgan Zarafshon qurilish boshqarmasi istiqlol bergan imkoniyatlar sharofati bilan mahalliy qurilish bo'linmasidan dunyo darajasidagi sanoat va fuqarolik obyektlarini barpo etuvchi ulkan bunyodkorlik majmuasigacha bo'lgan zafarli yo'lni bosib o'tdi. Boshqarmamiz Qizilqum sahrosi, Zarafshon vohasi hamda Jizzax va Toshkent viloyatlari va boshqa hududlar bag'rida shaharlar ochgan shijoatli insonlar va milliy muhandislik maktabining timsoliga aylandi.

SAHRO MO'JIZASI IJODKORLIGI

Bugungi kunda boshqarma tarkibida 2 ta yirik bo'linma — "Zarafshon" qurilish-montaj boshqarmasi hamda "Sanoatelektrmontaj" tresti muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Qariyb uch ming nafar muhandis va quruvchilarni birlashtirgan bu ahil jamoa butun mamlakatimizda haqiqiy sanoat inqilobini amalga oshirdi. Dunyoga mashhur "Muruntov" koni infratuzilmasini kengaytirish, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining gidrometallurgiya zavodlarini qurish va modernizatsiya qilish aynan mazkur boshqarma ishchilarining oltin qo'llari bilan bajarilayapti. Ayniqsa, so'nggi yillarda Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi NKMKning eng strategik obyektlarida bosh pudratchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 3-gidrometallurgiya zavodining qurilishi va 1995-yilda foydalanishga topshirilishi, 2010-yilda 4-gidrometallurgiya zavodining barpo etilishi eng yirik loyihalardan bo'ldi. Boshqarma mutaxassislari 4-gidrometallurgiya zavodini chetdan hech qanday ko'maksiz, qisqa muddatda qurib bitkazib, foydalanishga topshirishdi.

2016-yildan hozirgacha bo'lgan bosqichda qurilish sur'ati keskin oshdi. Bu davrda sohaga "Tezkor qurilish" (Fast-track) usuli joriy etilishi sohada tub burilish yasadi hamda odatda 4-5 yil davom etadigan zavod qurilishlarini 2-3 yilda yakunlash imkonini berdi. Loyihalash, uskunalarini yetkazib berish va qurilish ishlari bir vaqtning o'zida olib borilgan quruvchilardan yu-

qori professionallik, fidoyilikni talab etdi. Buning hisobiga so'nggi o'n yilda umumiy qiymati 4,9 milliard AQSH dollari bo'lgan 25 dan ortiq yirik loyiha amalga oshirilgani kombinat faoliyatida ilgari bo'lmagan ulkan natijalarni berdi, ya'ni oltin ishlab chiqarish hajmi 2016 yilga nisbatan 35,1 foizga oshdi. Quruvchi va mutaxassislar mehnati va salohiyati bilan qisqa davrda 3 ta zamonaviy gidrometallurgiya zavodi, 2-gidrometallurgiya zavodining 2-navbati, 218 kilometrlik temir yo'l, 9 ta ijtimoiy soha obyekti barpo etilgani qurilish industriyasining ulkan texnik salohiyatga ega ekanini ko'rsatmoqda. Buning natijasida yoshlarimiz uchun 2016-2025-yillarda 18 ming 800 ta yangi ish o'rnini yaratildi.

Shuningdek, Zarafshon shahrida "Umid" bolalar reabilitatsiya markazi, 504 o'rinli xitioslash-tirilgan maktab-internati, favvoralar sayilgohi, "To'dako'l" dam olish bazasida Xalqaro shaxmat maktabi, Zomin tumanida "NKMK" sanatoriysi, Uchquduq tumanida "Oltinko'l" dam olish majmuasi va boshqa ijtimoiy obyektlar ishga tushirishi bunyodkorlarimiz mehnati natijasidir. Bu obyektlarning barchasi kuchli zilzilalarga bardoshli bo'lib, xavfsizlik standartlariga to'la javob beradi.

Bugun 20 turdan ortiq qurilish materiallari korxonamizning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Natijada, import o'rnini bosuvchi qurilish mahsulotlari nafaqat mahalliyashtirildi, balki qurilish obyektlariga o'z vaqtida yetkazib berish, tannarxni ka-

maytirish imkonini bermoqda. Birgina 2025-yilda o'zimizning beton zavodlari, g'sisht ishlab chiqarish sexlari va metall konstruksiyalarni yig'ish maydonchalarida jami 618,3 milliard so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarildi.

Kasb bayrami nishonlangan kunlarda jamoamiz bunyodkorlari uchun zamonaviy yotoqxona-ni ishga tushirgan edik. Mustaqilligimizning o'ttiz besh yilligi munosabati bilan esa mamlakatimizning eng ulug', eng aziz ayyomiga yana bir qator obyektlarni ishga tushirgan holda, munosib sovg'a hozirlashni mo'ljallaganmiz. Bayram arafasida 2-gidrometallurgiya zavodida 2 ta tegirmon bloki, 3-gidrometallurgiya zavodida gradirniya, Janubiy kon boshqarmasida 400 o'rinli maishiy bino va boshqa muhim obyektlar foydalanishga topshirildi.

Oldimizda yanada ulkan marralar turibdi. Jumladan, "Muruntov" konini o'zlashtirishning V bosqich (2-navbati), "Nuqrakon", "Kosmonachi", "Oqetmas" konlarida kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasi, 2-GMZda oltin va kumushni affina qilish uchun yangi tayyor mahsulot sexini qurish kabi yirik loyihalarni amalga oshirishni boshlayapmiz. Buning uchun kuch va imkoniyatlarimiz yetarli. Chunki ahil, har qanday vazifani uddalashga qodir tajribali va professional jamoamiz bor.

Otabek HASANOV,
Zarafshon qurilish boshqarmasi boshlig'i.

■ Istiqlol tuhfası



YAXSHI TAJRIBA AMALIYOTDA QO'LLANILMOQDA

Odatda xorijiy safarlardan kuzatilgan asosiy maqsad ilg'or tajribalarni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat bo'ladi. 2022-yilda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Transport bo'yicha direktori Rustam Ergashev hamda ayni paytda jamiyat Transport vositalarini ta'mirlashni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritayotgan Nodir Sharipovning Moskva shahridagi "Zeppelin" CAT O'quv markaziga tashrifidan so'ng kombinatda ham xuddi shunday zamonaviy majmuani tashkil etish g'oyasi tug'ildi.

"CATERPILLAR", "Zeppelin International AG" va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan imzolangan o'zaro anglashuv memorandumida O'quv majmuasi uchun zarur stand va simulyatorlarning dastlabki qismi olib kelindi. Shuningdek, majmuani bunyod etishda "HAUL TRUCKS" (BelAZ), "Rudmash Export Service" (Cummins) hamda "IKO Machinery" (Komatsu) kabi nufuzli kompaniyalar tomonidan yaqindan texnik ko'mak ko'rsatildi.

Majmua CAT va Komatsu (Immersive) karyer avtoag'dargichlarini, shuningdek, BelAZ avtoag'dargichlari, SAT zanjirli buldozerlari va frontal yuklagichlarini boshqarishni o'rgatuvchi zamo-

naviy simulyatorlar bilan jihozlendi. Bu yerdagi mavjud VR (virtual reallik) trenajorlari gidravlik nasoslar hamda BelAZ transmissiya agregatlarini ta'mirlash bo'yicha xodimlarning mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz — O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yillik tantanalari arafasida foydalanishga topshirilgan mazkur O'quv majmuasining sinf xonalari interaktiv doskalar, noutbuklar, proyektorlar, suv sovutgichlari, konditsionerlar va zamonaviy mebellar, imtihon xonasi esa test sinovlari uchun maxsus kompyuterlar bilan to'liq jihozlangan.

QURUVCHILARGA BAYRAM SOVG'ASI

Eng ulug', eng aziz bayram arafasida Zarafshon qurilish boshqarmasi ishchi-xodimlari uchun barpo etilgan 250 o'rinli shinam yotoqxona – ayyom tuhfası sifatida foydalanishga topshirildi.



Yotoqxona zamonaviy yashash xonalari, yuvinish joylari, oshxona, kir yuvish va kiyimlarni saqlash, muolaja hamda ma'naviyat va ma'rifat xonalari, shuningdek, maxsus tibbiyot punktiga ega. Ishchi-xodimlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida futbol, basketbol, voleybol, gandbol sport maydonchalari va zamonaviy trenajor zali barpo etildi. Kombinat ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashining bu tashabbusini insonga bo'lgan yuksak e'tibor va ijtimoiy mas'uliyat namunası, deysish mumkin.

Yaqinda "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib,

yangi hayot va kelajak yaratamiz!" bosh g'oyasi ostida mazkur obyektning ochilish marosimi bo'li-y o'tdi. Tantanali tadbirning Zarafshon shahridagi "Oltin vodi-y" madaniyat saroyida tashkil etilgan dastlabki qismida Zarafshon shahar hokimi N. Rahmanov va "NKMK" AJ bosh muhandisi A. Ravshanov so'zga chiqib, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning, Zarafshon qurilish boshqarmasi mohir quruvchilarining fidokorona mehnatini alohida e'tirof etdilar. Anjumanda sohaning bir guruh ilg'orlari ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

MAISHIY BINO FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

"Zarmitan" koni ishchi-xodimlariga zaruriy shart-sharoitlar yaratish maqsadida Zarafshon qurilish boshqarmasi mohir quruvchilari tomonidan qurib bitkazilgan 400 o'rinli maishiy bino foydalanishga topshirildi.



Bu — yer qa'rida fidokorona mehnat qilayotgan kon ishchilari uchun munosib bayram sovg'asi bo'ldi. Qariyb 17 milliard so'm mablag' hisobiga barpo etilgan bu inshoot yangicha uslubda qurilgan bo'lib, zamonaviy sharoitlari, jumladan, yuvinish, kiyinish, kiyimlarni saqlash, quritish xonalari va tibbiyot punkti kabi qulayliklarga ega.

Tibbiyot punktiga o'rnatilgan zamonaviy uskunalar inson omilisiz ishchi-xodimlarning ishga qanchalik tayyorligini tezkor aniqlash, tashxis qo'yish, tibbiy ko'rikdan o'tayotgan insonlar-

ning salomatligini baholash, vaqtni tejash hamda sog'lig'ida nuqson aniqlangan ishchilarning mehnat qilishiga yo'l qo'ymaslik kabi imkoniyatlarga ega.

Maishiy binoni foydalanishga topshirish marosimida "NKMK" AJ Boshqaruvı rasi — Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov tadbir ishtirokchilarini ulug' ayyom hamda bayram sovg'asi bilan muborakbod etdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV,
Abdumajid JO'RAYEV.

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

LOYIHALAR MUHOKAMA QILINDI

Bugungi kunda geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, geologik ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish konlarni o'rganish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

“Navoiyuran” davlat korxonasi bosh direktori Djamol Fayzullayev hamda Geologiya fanlari universiteti rektori A'zam Qodirxo'jayev ishtirokida hamkorlikda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda universitet mutaxassislari tomonidan geologiya sohasini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va geologik ma'lumotlarni zamonaviy raqamli platformalar asosida boshqarishga qaratilgan taqdimotlar namoyish etildi. Taqdimotlarda uran konlari va geologik ma'lumotlarni raqamlashtirish, mavjud ma'lumotlar bazasi asosida konlarning uch o'lchamli (3D) modellarini yaratish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda geologik jarayonlarni tahlil qilish hamda zamonaviy raqamli yechimlarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq etish istiqbollari haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Universitet mutaxassislari tomonidan kern namunalari bo'yicha ma'lumotlarni, quduqlardan olinadigan karotaj (geofizika) axborotlarini raqamlashtirish,

uran konlariga oid yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda mineral resurslar zaxiralarini aniqlash va tahlil qilishga xizmat qiladigan sun'iy intellekt modullarini ishlab chiqish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi. Mazkur tashabbuslar geologiya-qidiruv ishlarining aniqligi va samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchrashuv yakunida korxona bosh direktori Djamol Fayzullayev Geologiya fanlari universiteti bilan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq bosqichlar hamda muddatlarni belgilash muhimligini ta'kidladi. Mazkur hamkorlik ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytirish, innovatsion yechimlarni amaliyotga keng joriy etish hamda uran sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

YOSH MUTAXASSISLAR TASHABBUSLARI

ishlab chiqarish samaradorligiga xizmat qiladi



“Navoiyuran” davlat korxonasi bosh direktori Djamol Fayzullaev korxonada faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar bilan uchrashib, ularning innovatsion g'oya va tashabbuslari, raqamlashtirish yo'nalishidagi takliflari hamda ish jarayonida uchrayotgan muammolar yuzasidan fikr-mulohazalarini tingladi.

Muloqot davomida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish va mehnat unumdorligini yuksaltirishga qaratilgan qator tashabbuslar muhokama qilindi. Xususan, korxonaning geotexnologik bo'limi muhandisi Ozodbek Shukurov tomonidan ishlab chiqilgan “Er ostida eritmaga o'tkazish jarayonida burg'langan so'rib oluvchi quduqlarda elektr cho'kuvchan nasos agregatlarining qisilib qolishining oldini olish texnologiyasi” loyihasiga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda yer ostida eritmaga o'tkazish texnologiyasi asosida uran qazib olish jarayonida ayrim so'rib oluvchi quduqlarda elektr cho'kuvchan nasos agregatlarining (ECHNA) qisilib qolishi yoki quduqning ishdan chiqishi holatlari uchrab turibdi. Bu esa qo'shimcha ta'mirlash ishlarini talab qilib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Muammoni bartaraf etish maqsadida metall-polimer quvurlari yoki 159X4 millimetrlar o'lchamli zanglamas po'lat quvurlardan foydalanish taklif etilmoqda. Ushbu yechim “Zafarobod” kon boshqarmasi 2-sonli geotexnologik konidagi “Janubiy Bukinay”, “Shimoliy Konimex” hamda “Uchquduq” ishlab chiqarish maydoni “Zarafshon” geotexnologik konidagi “Sugrali”, “Janubiy Sugrali”

va “Aktau” konlaridagi ishchi so'rib oluvchi quduqlarda qo'llanilishi mumkin.

Uchrashuvda burg'lash va texnologik jarayonlardagi quduqlar faoliyatini tahlil qilish, karotaj ma'lumotlarini raqamlashtirish masalalari ham muhokama qilindi. Yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini jamlash, ularni tahlil qilish va amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli platforma yaratish, shuningdek, mehnat xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ham ilgari surildi.

Muloqot yakunida korxona rahbari yosh mutaxassislarning tashabbus va takliflarini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlab, ishlab chiqarishga innovatsion g'oyalarni keng joriy etish, amaliy ahamiyatga ega yangi loyihalarni ko'paytirish muhimligini qayd etdi. Yoshlar ittifoqi kengashi raisiga korxonada faoliyat yuritayotgan tashabbuskor yoshlarni keng qamrab olish, ularning ilg'or g'oyalarini muntazam o'rganish hamda yoshlar bilan doimiy va samarali muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

Bunday muloqotlar yosh mutaxassislarning bilim va salohiyatini ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq etish hamda korxona faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“Navoiyuran” DK PR xizmati.

■ O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga



INSON QADRI USTUVOR

Yuksak maqsadlar yo'lida faoliyat yuritib kelayotgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi” davlat muassasasi o'zining 5 yillik faoliyat sarhisobini O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi bilan hamohang tarzda nishonlamoqda.



Mazkur muassasa tomonidan konchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida izchil va samarali ishlar amalga oshirilyapti. Zero, jamg'arma faoliyati markazida doimo inson omili – konchining mehnati, salomatligi va farovon hayoti turadi. Bugungi kunda jamg'armaning Navoiy, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlarida joylashgan 56 ta bo'linmasi vakillari samarali mehnat qilishmoqda.

O'tgan besh yil davomida “NKMK” AJ, “Navoiyuran” davlat korxonasi hamda “NKMK jamg'armasi” davlat muassasasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar va nafaqaxo'rlarning salomatligini mustahkamlash e'tiborimiz markazida bo'ldi. Tibbiy-sanitariya bo'limi va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan har yili 30 mingdan ortiq xodim va nafaqaxo'rlarga tezkor tibbiy yordam ko'rsatilmoqda. Birgina joriy yilning birinchi yarmida 16 mingdan ortiq mehnatkashlar va ularning farzandlariga statsionar sharoitda davolanish imkoniyati yaratildi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatilayotganligi quvonarlidir. Jumladan, yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan xodimlarga zamonaviy va samarali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida Navoiy shahridagi Tibbiy-sanitariya bo'limida Angiograf tibbiy uskunasi xarid qilinib, buning uchun 9,7 milliard so'm mablag' ajratildi. Mazkur uskuna yordamida ilk bor yuqori texnologik operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Har yili bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida 12 ming nafardan ortiq bolajonlar dam olib, sog'lomlashtirilmoqda. Joriy yilda ham ushbu ko'rsatkich 12 ming 117 nafarni tashkil etib, bolalar uchun munosib sharoitlar yaratilganini ko'rsatmoqda.

Jamg'arma tasarrufidagi mamlakatimizning eng so'lim maskanlarida joylashgan sanatoriya-profilaktoriylarda har yili o'n minglab mijozlar dam olib, sog'lig'ini mustahkamlash imkoniga ega bo'lmoqda. O'tgan 6 oy davomida 7 500 nafardan ortiq konchilar o'z oila a'zolari bilan birgalikda salomatligini tiklashdi.

Bugungi kunda jamg'arma tizimida 50 dan ortiq oshxona va bufetlar faoliyat yuritib, ularning aksariyati davolash-profilaktik ovqatlanish talablari asosida issiq ovqat tayyorlash va tarqatishga ixtisoslashgan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida band bo'lgan konchilarni sifatli va uzluksiz ovqat bilan ta'minlash imkonini bermogda.

Jamg'arma faoliyatida energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash yo'nalishlari alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Xususan, birgina 2025 yilda hududiy boshqarmalar hamda tarkibiy bo'linmalarda o'rnatilgan quyosh elektr stansiyalari orqali 730 ming kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

“NKMK jamg'armasi” tizimida qurilish va ta'mirlash ishlari izchil davom ettirilmoqda. So'nggi yillarda “So'g'diyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasida

borildi. “Zafarobod” hududiy boshqarmasi transport uchastkasi uchun transport saqlash binosi barpo etildi, Tibbiy-sanitariya qismining fasad qismi hamda terapiya bo'limi ta'mirdan chiqarildi.

Navoiy shahridagi Tibbiy-sanitariya bo'limining qabul bo'limi va jarrohlik bo'limi mukammal ta'mirlandi. Zarafshon shahrida esa tibbiy-sanitariya qismi va poliklinikalar to'liq yangilandi.

Issiqlik ta'minotini yaxshilash va energiya resurslarini tejash maqsadida “Issiqlik ta'minoti” MChJdan olinayotgan issiqlik energiyasini iqtisod qilish uchun 6 dona elektr suv isitish qozonlari hamda 110 dona quyosh suv isitish geliokollektorlari suv saqlash sig'imi bilan birgalikda bosqichma-bosqich o'rnatilmoqda.

Navoiy maydindagi ijtimoiy obyektlar uchastkasiga qarashli “To'dako!” dam olish maskanida mavsumiy faoliyatni uzluksiz tashkil etish uchun kottej va yordamchi binolarga zamonaviy issiqlik tizimlari joriy etildi. “Gorniyak” pansionatida issiq suv ta'minoti uchun mo'ljallangan 89 dona quyosh suv isitish geliokollektorlari va suv saqlash sig'imlarini o'rnatish ishlari to'liq yakunlandi. “Uchquduq” hududiy boshqarmasiga qarashli “Lochin” sog'lomlashtirish majmuasining “Marvarid” suzish havzasi bino va inshootlarini mukammal ta'mirlash bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqildi va hozirda amaliy ishlar davom etmoqda.

“Uchquduq” hududiy boshqarmasi ovqatlanish kombinati tasarrufidagi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash omborlarida zamonaviy, energiya tejamonkor freonli sovitish kompressorlarini o'rnatish bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlanib, ularni joriy yilda ishga tushirish yuzasidan aniq choralar ko'rilmogda.

Jamg'arma tizimida transport vositalarining samarali faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular

sport musobaqalarini tashkil etish, bolalar dam olish oromgohlari, 60 dan ziyod oshxona va oziq-ovqat bazalarida uzluksiz xizmat ko'rsatib kelmoqda.

“NKMK jamg'armasi” davlat muassasasi tasarrufidagi madaniyat muassasalari faoliyati samarali va boy ijodiy tajribalar bilan yanada rivojlanib bormogda. Jamg'arma tizimida faoliyat yuritayotgan 300 nafarga yaqin madaniyat xodimlari 139 ta to'garak va guruh faoliyatini olib borib, ularda 500 nafar kattalar hamda 2 ming 500 nafarga yaqin bolalar muntazam ishtirok etmogda.

Tizimdagi 67 ta ansambl mamlakatimizda nishonlanadigan bayramlar, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, ko'plab sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmogda. Har yili 2 mingdan ortiq tadbir, bayram dasturi va konsertlar tashkil etilmogda. Birgina joriy yilning birinchi yarmida 681 ta bayram dasturi va turli tadbirlar o'tkazilgani madaniyat muassasalarining jamg'arma hayotidagi o'rni va faolligi naqadar yuqori ekanini ko'rsatadi.

Bugungi tezkor axborot asrida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni mutolaaga keng jalb etish muhim vazifalardan biridir. Shu ma'noda, jamg'arma tasarrufidagi madaniyat saroylari va kutubxonalarda xodimlarning mehnatdan tashqari vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, farzandlarida san'at va kitobga mehr uyg'otishdek ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Sport sohasi jamg'armaning asosiy ijtimoiy mas'uliyati yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda jamg'arma tizimidagi 108 ta sport seksiyasida 2 ming nafardan ortiq kattalar hamda 3 500 nafarga yaqin bolalar va o'smirlar muntazam ravishda sport bilan shug'ullanmoqda. Jamg'arma sportchilari xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli musobaqalarda munosib ishtirok etib, salmoqli natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Mamlakatimiz hayotidagi eng ulug' va qutlug' sanalardan biri – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanayotgan paytda jamg'arma tasarrufidagi madaniyat muassasalari ham bayram tantanalarga munosib hozirlik ko'rdilar. Madaniyat saroylari, ijodiy jamoalar va san'atkorlar tomonidan Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan yangi repertuarlar, musiqiy va konsert dasturlari tayyorlanib, hududlarda keng ko'lamli bayram tadbirlari o'tkazil-



mogda.

Kelgusida ham “NKMK jamg'armasi” tomonidan tibbiyot, sog'lomlashtirish va dam olish, ovqatlanirish, madaniyat hamda sport sohalarida izchil ishlar davom ettirilib, xodimlar va ularning oila a'zolari uchun yuqori sifatli xizmatlarni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy tibbiy asbob-uskunalarini joriy etish, umumiy ovqatlanish kombinatlari va madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish orqali mehnatkashlarning salomatligi, farovonligi va mehnat unumdorligini yanada oshirish ko'zda tutilmoqda.

Biz bundan buyon ham “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni o'z faoliyatimizning bosh mezonini sifatida belgilab, konchilar va ularning oila a'zolari uchun munosib mehnat, dam olish, davolanish va sog'lomlashtirish sharoitlarini yaratish, zamonaviy va sifatli xizmatlarni yo'lga qo'yish yo'lidan boramiz.

Mustaqil O'zbekistonimiz taraqqiyotining eng katta kuchi – inson. Uning salomatligi, farovonligi va ertangi kunga bo'lgan ishonchi esa bizning faoliyatimizga mazmun va mas'uliyat bag'ishlaydi.

Suxrob ALTINOV,
“NKMK jamg'armasi” DM direktori o'rinbosari.